# 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki ma’lumotlarga koʻra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 28 027,2 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar - 27 656,2 mlrd. soʻmni (102,5 %), oʻrmon xoʻjaligi - 266,7 mlrd. soʻmni (102,0 %), baliqchilik xoʻjaligi - 104,3 mlrd. soʻmni (109,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 7,7 % ni tashkil etdi.




**28 027,2** — Surxondaryo viloyati boʻyicha qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm

| | | |
|---|---|---|
| 01 | 27 656,2 | Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar |
| 02 | 266,7 | Oʻrmon xoʻjaligi |
| 03 | 104,3 | Baliqchilik xoʻjaligi |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022- yilning yanvar-dekabr yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 98,7 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 0,9 % i - oʻrmon xoʻjaligi, 0,4 % i - baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida,shahar va tumanlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (4 403 mlrd. soʻm) va Sherobod tumanlarida (3 324 mlrd. soʻm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (73 mlrd. soʻm) va Bandixon tumanlari (891 mlrd. soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

Viloyat koʻrsatkichidan (102,5 %) yuqori oʻsish surʼatlari Termiz shahrida (110,1 %), Sherobod (105,5%), Sariosiyo (104,5 %), Oltinsoy (104,5 %), Uzun (104,5 %), Bandixon (104,1 %), Denov (104,1 %) va Boysun tumanlarida (103,8 %) kuzatildi. Shoʻrchi (102,4 %), Muzrabot (101,3%), Qiziriq (100,9 %), Qumqoʻrgʻon (100,6 %), Angor (100,4 %), Termiz va Jarqoʻrgʻon tumanlarida (98,8 %) esa aksincha oʻsish surʼatlari pastligi kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 27 474,1 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 14 683,5 mlrd. so‘mni (101,7 %), chorvachilik mahsulotlari - 12 790,6 mlrd. so‘mni (103,4 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 65,6% i - dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 26,7 % i - fermer xo‘jaliklariga, 7,7 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Sherobod tumanida (44,7 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (99,2 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida (30,5 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Qizizriq tumanida (0,9 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Denov tumanida (59,1 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Boysun tumanida (0,3 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 14 683,5 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,4 % ni tashkil qildi.

## Don jami












2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 723,8 ming t. don (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 0,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 72,6 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 350,5 ming t. kartoshka (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1 143,8 ming t. sabzavot (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 329,1 ming t. poliz (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatilmoqda.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Mevalar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 180,3 ming t. meva (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**






2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 104,9 ming t. uzum (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 53,6 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12 790,6 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,6 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 209,8 ming t. go‘sht (2021- yilning yanvar - dekabriga nisbatan 3,6 % ga ko‘p), 936,3 ming t. sut (2,9 % ga ko‘p), 542,1 mln. dona tuxum (4,0 % ga ko‘p), 2 699,0 t. jun (3,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 6 003,8 t. baliq (9,6 % ga ko‘p) ovlandi.

## Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 209,8 ming t. go‘sht (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 936,3 ming t. sut (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2,9 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmoqda.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna



# Tuxum












2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 542,1 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 46,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.



## Surxondaryo viloyati bo'yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 6 003,8 t. (2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 9,6 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 64,2 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yining 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,0 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 19,2 % i fermer xo‘jaliklariga, 77,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 29,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 67,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 3,1 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 9,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 52,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 38,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 044,9 ming boshga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 21,2 ming boshga (2,1 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni,

## ming bosh



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 400,6 ming boshga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni - 4,2 ming boshga (1,1 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 92,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 535,4 ming boshga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 56,2 ming boshga (2,3 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 77,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 16 170 taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni - 718 taga (4,6 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 67,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Surxondaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 128,2 mingtaga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni - 22,2 mingtaga (0,4 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 52,2 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



# Surxondaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

• 76-225-65-78